



ISBN 978-9943-9229-3-8



9 789943 922938

ASTANOVA GULNORA AMINOVNA

**ARAB TILI FONETIKASINI
O'RGANISH USULLARI
(SHARQ (ARAB) TILI FANI MUSTAQIL
TA'LIMIDAN KO'RSATMALAR)**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ASTANOVA GULNORA AMINOVNA

**ARAB TILI FONETIKASINI O‘RGANISH
USULLARI**

(Sharq (arab) tili fani mustaqil ta’limidan ko‘rsatmalar)

**Buxoro - 2023
“Bukhara Hamd Print”
nashriyoti**

UO'K 811.411.21'342(072)

A 85

Astanova Gulnora Aminovna.

Arab tili fonetikasini o`rganish usuliyoti (Sharq (arab) tili fani mustaqil ta'limdan ko'rsatmalar) [Matn] : usuliy qo`llanma / G.A.Astanova.-Buxoro: BUKHARA HAMD PRINT, 2023.-68 b.

KBK 81.2Arab-1

Arab tili fonetikasini o`rganishga bag`ishlangan bu usuliy qo`llanma talabalarga mustaqil ta'limda usuliy ko'rsatma vazifasini bajaradi hamda ularni til fonetikasining nazariy va amaliy masalalari va vazifalari bilan tanishtiradi. Shuningdek, qo`llanma arab tilining paydo bo`lish tarixi, arab tili fonetikasining yo`nalishlari, bo`limlari hamda o`ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Qo`llanmada arab tili fonetikasini hozirgi o`zbek adabiy tili fonetikasi bilan qiyosiy aspektda o`rganish usuliyoti qo`llanilgan.

Usuliy qo`llanma 5120100 – filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bakalavrlariga mo`ljallangan “Sharq (arab) tili fanini o`rganishga qaratilgan.

Mas'ul muharrir –filologiya fanlari doktori, professor Y. Saidov

Taqrizchilar- filologiya fanlari doktori, dotsent Z.Q.Amonova

Buxoro shahri “Jo`ybori kalon” ayol-qizlar

o`rta maxsus islom ta'lim muassasasi

o`quv-uslubiy bo`lim boshlig`i, sharqshunos N. Q.Raximova

***Mazkur usuliy qo`llanma BuxDU o`quv – metodik kengashining
2023 yil 25 yanvar 3-son kengashida nashrga tavsiya etilgan***

ISBN 978-9943-9229-3-8

© Astanova G.A.

©BUKHARA HAMD PRINT - 2023

KIRISH

Barcha zamonlarda ham ilm-fan yutuqlari asosida intellektual salohiyatning yuksalib borishi jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan hisoblangan. Biz yashayotgan globallashuv davrida bu jihatning muhimlik darajasi yanada ortganligi ijtimoiy hayotimizning har bir jabhasida sezilib turadi. Ta'lim sohasida mazkur masalaning qay darajada muhimligini mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'limning har bir jabhasida natija bera oladigan ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini jahon standartlari darajasiga yetkazish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bilan ham izohlash mumkin. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz¹".

Shunga ko'ra davlatimizning xorijiy sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, sharq tillarini mukammal biluvchi, salohiyatli filologlar, tarjimashunoslar, sinxron-tarjimonlarni yetishtirib berish kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimiga chet tillarini o'rgatish bo'yicha xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish va "chet tillarini egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" darajalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda bosqichma-bosqich demokratik tamoyillarning ustivorligiga asoslangan yangi jamiyatni qurishga yo'naltirilgan islohotlar doirasida ta'lim-tarbiya ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlab

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.– Тошкент: Ўзбекистон, 2016.

beruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘lib, ushbu hujjatlarda zamon talablariga muvofiq bo‘lgan barcha shart-sharoitlar va hammadan avval inson manfaatlarining ustivorligini ta‘minlovchi imkoniyatlar, uning ehtiyojlarini amalga oshirish masalalari bilan bir qatorda raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asoslari belgilab qo‘yilgan. Shunga binoan, ushbu usuliy qo‘llanma, Sharq (arab) tili ta‘limini rivojlantirishga doir nazariyalar va innovatsion yondashuvlarni inobatga olgan holda amalga oshirilgan kichik izlanish samarasidir.

1-MAVZU: ARAB ALIFBOSINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (2SOAT)

Reja:

1. Arab tilini o‘rganishning maqsad va vazifalari.
2. Arab tili fonetikasi va fonetik yozuv.
3. Fonetikaning turi va qismlari.

1. Arab tilini o‘rganishning maqsad va vazifalari

Ming yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan boy ma’naviy merosimiz, asosan, arab yozuvidagi manbalar orqali yetib kelgan. Ma’lumki, bu yozuv arablarnigina emas, balki arab bo‘lmagan ko‘pgina sharq xalqlarining adabiyoti va fanida qo‘llanib kelgan harf-tovushli yozuvdir. U qadimgi finikiy yozuvining oromiy tarmog‘idan kelib chiqqan. Milodning III–IV asrlarida shakllanib, arab tilining ifodasi uchun qo‘llana boshlagan va “arab yozuvi” nomini olgan. Oromiy alifbosida 22 ta harf bo‘lgan. Arablar bu alifboga 6 ta yangi tovush harf (غ ظ ض ذ ح ث) qo‘shib, 28 taga yetkazganlar. Harflar so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida va alohida yozilish shakllariga ega. Ayrim harflar, jumladan, ا (alif), د (dal), ذ (zal), ر (ra), ز (za), و (vav) undoshlari, so‘z boshida va so‘z o‘rtasida qo‘shilib yozilmaydi. Arab alifbosidagi harflarning deyarli hammasi undosh tovushlarni, faqat uchtasi - ا (alif), و (vov), ي (yo) unli tovushlarni bildirib keladi. (“Vov ” va “yo” ham unli, ham undosh vazifasini bajaradi). Bu yozuvda unli larni ifoda qilish uchun harflarning ost-ustiga qo‘yiladigan harakatlardan foydalaniladi. Biroq, arab yozuvida unli larga ishora qo‘yilmasa ham, so‘zlar sarfu nahv qoidalariga ko‘ra mazmunga moslab o‘qilaveradi.

Eski o‘zbek alifbosi arab yozuvi asosiga qurildi. O‘zbek xalqining tarixda yaratilgan barcha adabiy va ilmiy manbalar asosan, arab tilida bitildi. Saqlanib qolgan dalillarga ko‘ra O‘rta Osiyo hududida arab yozuvida bitilgan dastlabki hujjat Panjikent hukmdori Divashtich tomonidan Arab xalifaligining Xurosondagi noibi Amir al-Jarroh nomiga 719 yilda yozilgan maktubdir.

Arab yozuvi Movarounnahrda VII asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Madaniy jihatdan o'zbek va tojik xalqining ota-bobolari o'z adabiyot va madaniyatlarini arab tilida yaratdilar. Mashhur mahalliy olimlar ham o'z asarlarini arab tilida yozdilar. Bu esa arab tilining imkoniyatini yanada yuqoriga ko'tardi. Ikkinchidan, arab tilining boyligi, ifodaliligi ilmiy terminlar yaratishda ancha qulay edi.

XI asr boshlarida Markaziy Osiyoda turkiy xalq, qabila va urug'larning yirik markazlashgan davlati – Qorahoniylar sulolasi tashkil bo'lishi bilan eski turkiy tilning nufuzi oshdi, uning yuksak adabiy til darajasiga olib chiqish jarayonida qator olim-u shoirlar etishib chiqdi. Bularga XI-XII asrlarda ijod qilgan Mahmud Qashg'ariy, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy ijodlarini ko'rsatish mumkin. Bu mualliflarning asarlari ham o'zlari yashab ijod etgan XI-XII asrlar kitobat til mahsuloti sifatida emas, balki XIII asrdan boshlab ko'chirilgan qo'lyozmalar orqali etib kelgan. Demak, arab yozuvida yaratilgan hozirgi turkiy qo'lyozmalar kitobatlarning tarixi XIII asrdan boshlanadi.

Beruniy, Ibn Sino, Farobiy va boshqa ko'plab mutafakkirlar o'z asarlari bilan jahon madaniyati xazinasiga beqiyos hissa qo'shganlar. Ular o'z asarlarini arab va fors tillarida bayon etganlar. So'z mulkinging sultoni Mir Alisher Navoiy hazratlari esa o'z asarlarini arabiy, forsiy hamda turkiy tilda bitganlari sir emas. SHu nuqtai nazardan qaraganda arab tilini o'rganish ajdodlar qoldirgan merosni chuqur o'rganishimiz va uni hayotga tadbiiq etishimiz muhim ahamiyatga ega.

2. Arab tili fonetikasi va fonetik yozuv

«Fonetika» atamasi qadimgi yunoncha qo'shma so'z bo'lib, aslida «tovushlar qutisi» degan ma'noni bildiradi. Ilmiy atama sifatida bu so'z tilshunoslikning bir mustaqil bo'limi nomini ifodalaydi.

Fonetikada ko'plab hodisalar o'rganiladi, lekin ular ichida eng muhimi 3 ta:

1. Nutq tovushlari.
2. Bo'g'in.
3. So'z urg'usi.

Fonetikada nutq tovushlari o'rganiladi. Nutq tovushlari deganda inson fikr-o'yi, his-tuyg'usi va xohish-istagini ifodalash uchun ishlatadigan tovushlar tushuniladi.

Tovushdan kattaroq fonetik birlik bo'g'in hisoblanadi. Nutqning bir havo zarbi bilan aytiladigan bo'lagi bo'g'in deb ataladi. O'zbek tilida bo'lgani kabi arab tilida ham har bitta bo'g'inda faqat bittagina unli tovush ishtirok etadi. Binobarin, o'zbek tilidagi singari arab tilida har qanday so'zda bo'g'inlar soni unli soniga teng bo'ladi. Arab tilida diftong deb ataladigan va ikkita unlining qorishuvidan tashkil topadigan tovushlar birikmasi mavjud. O'zbek tilining fonetik tuzilishida bunday hodisa uchramaydi.

Arab harflari

№	harflar nomi	harflar nomi arabiy yozuvda	transkripsiya	alohida	so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida
1	alif	ألف	ā, a	ا	ا	ا	ا
2	bā	باء	b	ب	ب	ب	ب
3	tā	تاء	t	ت	ت	ت	ت
4	sā	ثاء	s	ث	ث	ث	ث
5	jīm	جيم	j	ج	ج	ج	ج
6	x.ā	حاء	x.	ح	ح	ح	ح
7	xā	خاء	x	خ	خ	خ	خ
8	dāl	دال	d	د	د	د	د
9	zāl	ذال	z	ذ	ذ	ذ	ذ
10	rā	راء	r	ر	ر	ر	ر
11	zā	زاء	z	ز	ز	ز	ز
12	sīn	سين	s	س	س	س	س
13	shīn	شين	sh	ش	ش	ش	ش
14	s.ād	صاد	s.	ص	ص	ص	ص
15	d.ād	ضاد	d.	ض	ض	ض	ض

16	t.ā	طاء	t.	ط	ط	ط	ط
17	z.ā	ظاء	z.	ظ	ظ	ظ	ظ
18	‘ayn	عين	‘	ع	ع	ع	ع
19	g‘ayn	غين	g‘	غ	غ	غ	غ
20	fā	فاء	f	ف	ف	ف	ف
21	qāf	قاف	q	ق	ق	ق	ق
22	kāf	كاف	k	ك	ك	ك	ك
23	lām	لام	l	ل	ل	ل	ل
24	m īm	ميم	m	م	م	م	م
25	nūn	نون	n	ن	ن	ن	ن
26	hā	هاء	h	ه	ه	ه	ه
27	vāv	واو	v, ū, av	و	و	و	و
28	yā	ياء	y, ī, ay	ي	ي	ي	ي
	hamza		‘	ء			

Urg‘u deganda so‘zdagi muayyan bo‘g‘inning yoki gapdagi qaysidir bir bo‘lakning alohida ta’kidlab aytilishi tushuniladi. Ta’rifdan ham ko‘rinib turibdiki, urg‘uning 2 ta asosiy ko‘rinishi mavjud:

1. So‘z urg‘usi.
2. Mantiqiy urg‘u.

So‘z urg‘usi qaysidir bir bo‘g‘inga, to‘g‘rirog‘i, o‘sha bo‘g‘indagi unli tovushga tushadi. M.: ma’ktab(un), da’ftar(un), kitā’bat(un), qa’lam(un) .

Mantiqiy urg‘u gapdagi qaysidir bir gap bo‘lagiga tushadi. Gap bo‘lagi esa goh bitta so‘z bilan, goh birdan ortiq so‘z bilan ifodalanishi mumkin. Mantiqiy urg‘u olgan bo‘lak ko‘pincha kesimdan oldin keladi. Kesimning o‘zi mantiqiy urg‘u olsa gap boshiga ko‘chirilishi mumkin. M.:

1. Kecha Rashid samolyotda **Toshkentga** ketdi.
2. Kecha Rashid Toshkentga **samolyotda** ketdi.
3. Rashid Toshkentga samolyotda **kecha** ketdi.

4. Kecha samolyotda Toshkentga **Rashid** ketdi.

Yuqoridagi jumla tuzilishi o‘zbek tiliga xos bo‘lsa, arab tilida u quyidagicha:

1. Sāfara amsi Rashūd bit.-t. āirati ilā **t.ashqand**.

2. Sāfara amsi Rashūd ilā t.ashqand **bit.-t. āirati**.

3. Sāfara Rashūd bit.-t āirati ilā t.ashqand **amsi**.

4. **Rashūd** sāfara amsi bit.-t āirati ilā t.ashqand.

Ko‘rib turganimizdek, faqatgina to‘rtinchi holatda o‘zbek tili til normasi bilan arab tili til normasida farq seziladi. Bu esa arab tili grammatik qurilishi bilan bog‘liq. Mantiqiy urg‘u gap bo‘lagiga tushadi, dedik. Gap bo‘lagi esa sintaktik kategoriya. Shuning uchun ham mantiqiy urg‘u grammatika deb atalgan bo‘limning sintaksis deb yuritiladigan qismida o‘rganiladi.

Tovush hosil qilishda tabiiyki nutq a‘zolarining ahamiyati katta. Nutq a‘zolariga ko‘krak qafasi, o‘pka, kekirdak, tovush paychalari, kichik til, tanglay, og‘iz bo‘shlig‘i, jag‘, tish, lab, burun, til kabilar kiradi.

Nutq a‘zolari nutq jarayonidagi ishtirokiga ko‘ra 2 ga bo‘linadi:

1. Faol (aktiv) nutq a‘zolari: tovush paychalari, kichik til, til, lab va pastki jag‘.

2. Nofaol (passiv) nutq a‘zolari: ko‘krak qafasi, kekirdak, yuqori jag‘, qattiq tanglay, burun, tish.

Nutq a‘zolarida hosil bo‘lish jarayonida nutq tovushlari qandaydir to‘siqlarga uchrashi yoki uchramasligi mumkin. SHu jihatdan nutq tovushlari 2 ga bo‘linadi:

1. Unli tovushlar. Ular nutq a‘zolarida hech qanday to‘siqqa uchramaydi.

2. Undosh tovushlar. Ular nutq a‘zolarida ozmi-ko‘pmi to‘siqqa uchraydi.

An‘anaviy arab tilshunosligimiz xulosalariga ko‘ra hozirgi arab adabiy tilida 34 ta tovush mavjud. Shulardan 6 tasi unli tovush hisoblanadi. Ular: 3 ta cho‘ziq - ā, ū, ū, 3 ta qisqa - a, i, u .

Arab adabiy tilidagi qolgan 28 ta tovush undosh tovush hisoblanadi. Bular haqida batafsil keyingi darsda to‘xtalamiz.

3. Fonetikaning turi va qismlari

Nutq tovushlari turli tomondan o'rganilishi mumkin. Shunga ko'ra fonetika, asosan, beshta turga bo'linadi:

1. Umumiy fonetika.
2. Tarixiy fonetika.
3. Qiyosiy fonetika.
4. Tajriba fonetikasi.
5. Tavsifiy fonetika.

Nutq tovushlari, ularning turlari va o'zgarishlari haqida **umumiy fonetika** ma'lumot beradi.

Tarixiy fonetikada tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida nutqning rivojlanishi va o'zgarishi o'rganiladi.

Qardosh tillardan ikkitasi bir necha tillardagi tovushlarni chog'ishtirib o'rganadigan til **qiyosiy fonetikadir**.

Maxsus asboblardan bilan nutq tovushlarini yozib, ularning xususiyatlarini o'rganadigan fonetikaning bir turi **tajriba fonetikasi** deyiladi. Bu usulda unli tovushlardagi cho'ziqlik yoki qisqalik hamda lablanish juda aniq belgilanadi. Bunda nutq tovushlarining filologik, akustik (ma'no ajratish) tomonlari tekshiriladi.

Tavsifiy fonetika nutqning turli sathlari bo'yicha sof fonetik bo'linishlariga asoslanadi. Nutqning fonetik jihatidan mayda bo'laklarga bo'linishi segmentatsiya (niglizcha "bo'linish") deyiladi. Har bir bo'lingan bo'lak segment deb yuritiladi. Nutqning fonetik bo'linishida yirik segment ibora (fraz) hisoblanadi. Fraz o'z navbatida, mayda segmentlarga –takt, bo'g'in va tovushlarga bo'linishi mumkin. Shu sababli eng kichik segment-tovushga to'g'ri kelganidek, uni tildagi so'zlarni farqlovchi fonemaga qiyos etiladi. Boshqa fonetik birliklar supersegment vositalar (bo'g'in, urg'u, ohang) deyilib, ular ma'no ajratish xizmatini bajarsa, fonologiyada sillabema, asentema va intonema deb ataladi. Ular fraza (ibora), takt, so'z, bo'g'in va tovushlardir.

Nutq tovushlarining ma'no farqlashga xizmat qiluvchi ko'rinishi fonema deb yuritiladi. Masalan, o'zbek tilidagi *iz, bir, din* so'zlaridagi «i» tovushi bir- biridan farq qiladi. Ular uchta tovush bo'lsa-da, bitta fonema hisoblanadi.

Og'zaki nutq jarayonida ko'pgina tovushlar turli xil o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu o'zgarishlarning bir qismi yozma adabiy tilga ham o'tadi. Tilda bir- biriga qarama-qarshi bo'lgan tejamkorlik va qo'shaloq qo'llash, bir xillikka intilish va har xillikka intilish, ba'zi birliklarnig o'rnini almashtirish kabi tamoyillar mavjud. Tejamkorlik yoki ekonomiya printsipli ta'sirida faqat so'z va qo'shimchalar emas, tovushlar ham tushib qolishi mumkin. Tovush orttirilishi unga teskari jarayon bo'lib, o'zining konkret sabablariga ega. Tovush almashinishi esa umuman olganda qulaylikka intilish natijasidir.

Tovush o'zgarishlari haqida fikr yuritganda xalqning og'zaki nutqini, shevalarini, hattoki bir shevaning muayyan vakillariga xos talaffuzni hisobga olish kerak.

Masalan, o'zbekcha quyidagi so'zlarning daryo – dayro, dunyo – duyno, tuproq – turpoq kabi ko'rinishlari og'zaki tilda uchrab turadi. So'z o'rtasidagi undosh tovushlarning bu xilda o'rin almashinishi fanda metateza deb ataladi.

Navbatdagi muhim masala o'sha fonetik o'zgarishlarning sabablarini aniqlashdir. M.: qator turkiy tillarda «r» tovushi bilan boshlanuvchi so'zlar oldidan bitta unli tovush orttiriladi. M.: rus – urus // o'ris, ro'za – o'raza, Rahimjon – Irayimjon. Yoki «stantsiya» so'zini «istansa», «stol» so'zini «ustal», «spits» so'zining «ispis» tarzida talaffuz qilishda ham tovush orttirilishining proteza degan ko'rinishi uchraydi. Lekin buni yuqoridagi sabab bilan izohlayolmaymiz. Chunki, masalan, o'zbek tilida «s» tovushi bilan boshlanuvchi asl turkiy so'zlar mavjud. Buning sababi shuki, asl turkiy so'zlarda birorta ham bo'g'in 2 ta undosh bilan boshlanmaydi. Shuning uchun qaysi bir o'zlashgan so'zdagi bo'g'in ikkita undosh bilan boshlansa, turkiylar uning oldidan yoki o'rtasidan bitta unli tovush orttirib aytadi.

Tovush o'zgarishlari uch turga bo'linadi:

1. Tovush ortishi.

2. Tovush tushishi.

3. Tovush almashinishi.

Tovushlarning shunchaki o'rnini almashtirishi ham tovush almashinishi hodisasiga kiradi.

Tovush o'zgarishlarining sabablari nihoyatda xilma-xil, lekin shu sabablarning katta qismini 2 ta bosh sababga olib borib bog'lash mumkin:

1. Tovush o'zgarishlari boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda ko'proq ko'zga tashlanadi. Tillarning artikulyatsion imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi. Ko'pincha yangi o'zlashgan so'zni talaffuz qilish vaqtida har bir kishi o'z tilining fonetik imkoniyatlaridan kelib chiqadi va so'zni shu imkoniyatlarga mos tarzda talaffuz qiladi.

2. Tovush o'zgarishlari o'z qatlamga mansub so'zlarga turli qo'shimchalar qo'shilgan vaqtda ham ro'y berishi mumkin. M.: chiroq – chirog'im, istak – istagi, qo'ng'iroq – qo'ng'iroqqa, kechik – kechikkan, qad – qaddi, bo'g'iz – bo'g'zi. Bu holatlar umuman olganda qulaylikka intilish tamoyili bilan bog'liq.

Shuningdek, arab tilida ham bunday holat kuzatiladi, buni fonematik variant deb tushuntiriladi. Fonematik variant deganda, bir o'zak ichida so'zning fonetik tarkibida qisman o'zgarish ro'y berilishi tushuniladi. Bu guruh o'zgarishlar eng ko'p uchraydigan variantlar turidir. Bir o'zak ichida, ya'ni undosh harflar o'zgarmasdan turib, unli harflar (harakatlar) hisobiga turlicha o'qish variantlari ham mavjud. Masalan, **kabd-kabid** – “jigar”, **faxz-faxiz** – “son”, **xutva-xatva** – “qadam”, **katif-kitf** – “elka”, **uzn-uzun** – “quloq” va boshqalar.

Ko'pincha uch o'zakli fe'llarning masdarlari turlicha harakatlanadi. Masalan: **kizb-kazib** – “yolg'on” (masd. **Kazab**); **qabul-qubul** – “qabul” (masd. **qabila**); **vaddun-viddun-vuddun** – “muhabbat”, “sevgi”; **maqrabatun-maqribatun-maqrubatun** – “yaqinlik”. Bunday fonetik jarayon ko'pincha fe'llarga ham tegishlidir. Fe'llarda asosan o'rta undosh harfining unlisi o'zgaradi. Masalan – فَرَغَ – فَرَعٌ – “qo'rqmoq”, “hayiqmoq”, فَرِغَ – فَرِغٌ – “bo'sh bo'lmoq”, قَدِرَ – قَدْرٌ – “iflos bo'lmoq; كَمَلَ – كَمِلٌ – كَمَلٌ – “to'liq bo'lmoq” va hokazolar.

Demak, bu misollarda fe'llarning o'rta o'zak harakatining o'zgarishi so'zlarning leksik ma'nolarini o'zgartirgani yo'q yoki o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantirgani yo'q.

Savol va topshiriqlar

1. Arab tilini o'rganishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Eski o'zbek adabiy tili haqida nimalarni bilasiz?
3. Fonetika nima?
4. Fonologiya nimani o'rgatadi?
5. Tovush o'zgarishi necha turga bo'linadi?
6. Nutq tovushlari deganda nimani tushunasiz?
7. Fonetikaning tur va qismlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Nutq a'zolariga nimalar kiradi?
9. Tovush o'zgarishi deganda nimani tushunasiz va u necha turga bo'linadi?

2- MAVZU: ARAB TILI FONETIKASINI GURUHLARGA BO'LIB O'RGANISH (2SOAT)

Reja:

1. Unli tovushlar tasnifi.
2. Undosh tovushlar tasnifi.
3. Undosh harflarning ikkilanishi.

1. Unli tovushlar tasnifi

Arab tilida unliharflar cho'ziq yoki qisqaligiga qarab muhim ahamiyat kasb etadi. Arab unliharflari 6 tadir: 3 ta cho'ziq - ā, ū, ū, 3 ta qisqa - a, i, u .

Arab tilida qisqa unliharflarni ifodalovchi harflar mavjud emas. Ularni faqat harf usti va ostiga qo'yiladigan belgilar ifodalay oladi. Belgilarni biz Qur'on va darslik matnlarini to'g'ri o'qish uchun qulaylik yaratish maqsadida qo'yilganini kuzatishimiz mumkin. Bunda belgilar "harakatlar" deb ataladi.

Qisqa unli "a" َ (fatxa), "i" ِ (kasra), "u" ُ (damma).

Bu harakatlar undosh harf ustiga yoki ostiga qo'yiladi. Masalan:

ب *ba*, بُ *bu*, بـ *bi*

Bunday undoshlarning cho'ziq unlilar bilan birikishi quyidagicha:

با *bā* بو *bū* بي *bū*

So'zdagi biror bir harf unlisiz kelsa, bunday undosh harf ustiga $\dot{\text{◌}}$ *sukun* belgisi qo'yiladi. Masalan, بُذْر *bazr* urug'.

Unli tovushlar 3 jihatdan tasnif qilinadi:

1. Tilning gorizontol holatiga ko'ra.
2. Tilning vertikal harakatiga ko'ra.
3. Lablar ishtirokiga ko'ra.

I. Tilning gorizontol holatiga ko'ra unlilar 2 ga bo'linadi:

1. Til oldi unlisi: a, i, ā, ū. Bu unlilarni talaffuz qilish vaqtida til tanglay ustida yastanib yotadi, uning uchki qismi pastki tishlarga yoki milkka tegib turadi. Havо oqimi tilning old qismidan atmosferaga erkin chiqib ketadi.

2. Til orqa unlisi: u, ū. Bu tovushni talaffuz qilish vaqtida til o'zining issiq o'rnidan qo'zg'alib og'iz bo'shlig'ida muallaq turadi.

II. Tilning vertikal harakatiga ko'ra unli tovushlar 2 ga bo'linadi:

1. Keng unli: a, ā
2. Tor unlilar: i, u, ū, ū

Ya'ni unlilarning bir qismini talaffuz qilish vaqtida nutq a'zolari kengroq, ba'zilarida torroq ochiladi.

III. Lablar ishtirokiga ko'ra ham unlilar 2 ga bo'linadi:

1. Lablangan (yoki lablashgan) unli: u, ū
2. Lablanmagan (yoki lablashmagan) unlilar: a, ā, i, ū

Unli tovushlar quyidagicha tasnif etiladi:

qator Tilning ko'tarilishi	old	o'rta	orqa
yuqori	i, ū		u, ū
o'rta			
pastki	- a, ā, -		

Arab tilida unlilar cho‘ziq yoki qisqaligiga qarab muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur unlilar o‘zi bilan yonma-yon kelayotgan undoshlar ta’sirida talaffuzda o‘zgarib ham turadi. Buning natijasida ular talaffuzining har xil varianti vujudga keladi. Masalan, “yumshoq undoshlar”¹ bilan birga kelgan “i” va “u” unlisi talaffuzda o‘zgarmaydi, biroq “a” unlisi “e” tovushiga o‘xshatab ketadi. Masalan: *tāba*→ *tēbe* u tavba qildi, *salām*→ *selēm* tinchlik.

2.Undosh tovushlar tasnifi. (KLASSIFIKATSIYASI)

Undosh tovushlar quyidagi jihatlarga ko‘ra tasnif qilinadi:

- I. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra.
- II. Tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra.
- III. Ovozning ishtirokiga ko‘ra.
- IV. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra.
- V. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra.
- VI. Tarkibiga ko‘ra.

I. UNDOHLARNING KELIB CHIQISH MANBAIGA KO‘RA TURLARI

Kelib chiqish manbaiga ko‘ra undosh tovushlar 2 guruhga bo‘linadi:

1. O‘z qatlamga mansub undosh tovushlar.
2. O‘zlashgan qatlamga mansub undosh tovushlar.

O‘zbek tili nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, tilimizdagi mavjud 25 ta undoshning 3 tasi boshqa tillardan o‘zlashgan. Ular: «f», sirg‘. «j» va «ts» tovushlaridir.

«F» tovushi o‘zbek tiliga dastlab forsiy va arabiy so‘zlar orqali kirib kelgan. M.: fan, fikr, fatvo, maxfiy, mufti (arabiy), farmon, raftor, hafta, zarboft (forsiy).

Sirg‘. «j» tovushi dastlab forsiy so‘zlar orqali kirib kelgan. M.: mujda (xushxabar), ajdar, gijda.

Bu ikki tovush, ya’ni «f» va sirg‘. «j» XIX asr oxirlaridan boshlab ruscha-internatsional so‘zlar orqali ham kirib kela boshladi. M.: fabrika, bufet, konfet,

¹ “Юмшоқ ундoshлар” га б,ф, м, т, д, с, з, н, к, ш, й, ж, харфлари шунингдек, юкори ва пастки тишлар орасида ҳосил бўладиган ҳамда қаттиқ ундoshларга қарама-қарши кўйиладиган юмшоқ танглайда ҳосил бўладиган ундoshлар киради.

fufayka, garaj, jirafa, jurnal, dublyaj, reportaj, peyzaj. «TS» tovushi tilimizga faqat ruscha-internatsional soʻzlar orqali kirib kelgan. M.: konstitutsiya, konferentsiya, intuitsiya, litsey.

Tilimizdagi qolgan 22 ta undosh tovush oʻz qatlamga mansub, yaʼni ular oʻzbek tilining oʻzida azaldan mavjud boʻlgan. Lekin faqat «v» tovushining 2 ta varianti mavjud. Lab-lab tovushi hisoblangan «v» oʻz qatlamga mansub, «v» tovushining lab-tish varianti esa arabiy va ruscha-internatsional soʻzlardagina uchraydi. M.: vatan, va, vagon, valyuta.

Biroq, arab tili nuqtai nazaridan olib qaralganda, undagi undosh tovushlar oʻz qatlamiga mansub boʻlib, oʻzlashgani mavjud emas.

II. UNDOSSH TOVUSHLARNING TOVUSH PAYCHALARI ISHTIROKIGA KOʻRA TURLARI

Tovush paychalarining ishtirokiga koʻra ham undosh tovushlar avvalo 2 ga boʻlinadi:

1. Jarangli.

2. Jarangsiz.

Jarangli undoshlarni talaffuz qilishda tovush paychalari tarang tortiladi, umuman, bunda tovush paychalari faol ishtirok etadi. Jarangsiz undoshlarni talaffuz qilishda esa tovush paychalari sustroq ishtirok etadi.

Arab adabiy tilida quyidagi 8 ta jarangli undosh mavjud: **b, d., d, z, z., z, gʻ, ‘ayn.** Qolgan 13 ta undosh tovush esa jarangsiz undosh hisoblanadi.

Ular: **k, s., s, t, t., f, x, c, x., sh, q, h, ‘hamza.**

Ular quyidagi jadvalda ham oʻz aksini topgan:

Hosil boʻlish usuli		Hosil boʻlish oʻrni	Lab-lab	Lab-tish	tanglay				til oʻrta	CHuqur	Boʻgʻiz tovushlar		halqum
					tishlar orasi	Tish orti.	Emfatik (tish orti)	Old tanclay			YUqori tovush navchala	Pastki tovush navchala	
sho	Jarangli		b		d	d.							

		Jarang-siz			t	t.		k	q				‘ ham -za
	burun tovushlar		m					n					
Sirg‘aluvchi	shovqinli	jarangli			<u>z</u>	z	z.			g‘	‘ayn		
		jarangsiz		f	<u>c</u>	s	c.	sh		x	x.	h	
	tovushlar		o‘					l	y				
Tebranma tovushlar								r					
Qorishiq tovushlar yoki affrikatlar								j					

III. UNDOSSH TOVUSHLARNING OVOZNING ISHTIROKIGA KO‘RA TASNIFI

Undosh tovushlar ovozning ishtirokiga ko‘ra ham 2 guruhga bo‘linadi:

1. Sonorlar: m, n, l, r.
2. Shovqinlilar: qolgan 21 ta undosh shovqinlilarga kiradi.

Sonorlar tarkibida un shovqinga nisbatan kattaroq mavqe egallaydi. Ular o‘z jarangdorligiga ko‘ra unli tovushlarga yaqin turadi.

Shovqinli undoshlarda esa shovqin unga nisbatan kattaroq mavqe egallaydi.

IV. UNDOSSH TOVUSHLARNING HOSIL BO‘LISH O‘RNIGA KO‘RA TASNIFI

Mavjud 28 ta undosh tovush bo‘g‘iz zonasida, til zonasida yoki lab zonasida hosil bo‘ladi. Binobarin, bu jihatdan undoshlarni eng avvalo 3 ga bo‘lish mumkin:

1. Bo‘g‘iz undoshi.
2. Til undoshlari.
3. Lab undoshlari.

Mazkur bo‘linish jadvali yuqorida ko‘rsatilgan.

V. UNDOSSH TOVUSHLARNING HOSIL BO‘LISH USULIGA KO‘RA TASNIFI

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra yoki aytilish usuliga ko‘ra ham undoshlar 2 ga bo‘linadi:

1. Portlovchi: **b, d, d, k, m, n, t, t., q, ‘hamza.** (10 ta).
2. Sirg‘aluvchi: **z, z., z, ‘ayn, y, l, s., s, c, f, x, x., sh, g‘, h, o‘, r.** (16 ta).

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra ba‘zi tovushlar ayrim o‘ziga xosliklarga ega. Masalan, «r» tovushi tebranma tovush hisoblanadi. SHuning uchun uni shartli ravishdagina sirg‘aluvchi deb hisoblash mumkin. «L» tovushi esa sirg‘aluvchilarga kiradi. Lekin havo oqimi tilning ikki tomonidan sirg‘alib chiqadi. SHuning uchun ham u yon tovush deb yuritiladi.

V. UNDOSH TOVUSHLARNING TARKIBIGA KO‘RA TURLARI

Undosh tovushlar tarkibiga ko‘ra ham 2 ga bo‘linadi:

1. Yakka undoshlar.
2. Qorishiq undoshlar yoki affrikatlar.

Arab adabiy tilida 1 tagina affrikat mavjud bo‘lib, u portlovchi “j” tovushidir. Qolgan 27 ta undosh yakka undosh hisoblanadi. Ular tarkibiga ko‘ra soddadir.

UNDOSH TOVUSHLARI TAVSIFNOMASI

s va z undoshlari tishlar orasida hosil bo‘luvchi, sirg‘aluvchi va shovqinli tovushdir. S undoshi – jarangsiz, z undoshi esa jaranglidir. Ularni talaffuz etishda til uchini tishlar orasiga joylashtirib, yuqoridagi tishlarga jiplashtiriladi. Shunda til uchi bilan pastki tishlar orasiga hosil bo‘lgan kichik tirqishdan bu tovushlar sirg‘alib chiqadi. Bunday tovushlar o‘zbek tilida yo‘q. U ingliz tilidagi th harfi talaffuziga o‘xshaydi, masalan (to) thank *minnatdorchilik bildirmoq*, there *u yerda*.

Izoh: Bunday harflar ishtirok etgan arabcha so‘zlar forsiy va turkiy tillarda ishlatilganda oddiy s va z ga aylanadi.

“r” undoshi til uchining qattiq tanglayga muntazam urilib turishi jarayonida hosil bo‘ladi. “R” undoshi talaffuzda o‘zidan keyin kelayotgan unliga qarab goh qattiq, goh yumshoq talaffuz etiladi. Arabcha “r” rus tilidagi qattiq “r” ga o‘xshab

ketsada, ayrim hollarda u yumshoq talaffuz etiladi. “a” va “u” unlilaridan oldin kelgan “r” o‘ta qattiq talaffuz etiladi. Masalan, *robbū xudoyim*, *rubba ko‘p*. Biroq “i” bilan birga kelganda u rus tilidagi *r*’ o‘xshab ketadi. Masalan, “*ribā*” *sudxo‘rlik*.

“o” undoshi – lab-lab, jarangli sirg‘aluvchi tovush. Uning talaffuzida lablar bir-biriga yaqinlashib oldinga intiladi va dumaloq havo yo‘li hosil qilinadi. Rus va o‘zbek tilida bunday tovush mavjud emas. Bu tovush ingliz tilidagi *w* ga o‘xshaydi. Masalan: *war urush*. M: o‘azūr *vazir*, o‘ašūr *yumshoq*.

“y” undoshi - o‘rta tanglay sirg‘aluvchi tovush. Uning sirg‘alishi til o‘rta devori bilan qattiq tanglay orasida hosil bo‘ladi. Bunda rus tilidagi “y”ni talaffuziga nisbatan til ko‘proq oldinga intiladi. SHuning uchun arabcha “y” rus tilidagi “y” ga nisbatan yumshoqroqdir. Masalan: *yadū qo‘lim*, *yašibu u sakrayapti* kabi.

Shuningdek, “o” va “y” undoshlari o‘rni kelganda unli tovushlarga o‘xshab ketadi. SHuning uchun ularni yarim unli tovushlar ham deyiladi.

“j” undoshi - til oldi, jarangli va shovqinli tovush. U o‘zbekchadagi “j” tovushiga o‘xshaydi. Masalan: *jadūd* yangi, *tājir* savdogar.

“k” tovushi – til o‘rta, portlovchi, shovqinli, jarangsiz undoshdir. U til o‘rta devori bilan qattiq tanglay orasidagi portlash natijasida hosil bo‘ladi. U xuddi o‘zbek tilidagidek bir oz yumshoqroq talaffuz etiladi, masalan: *kataba yozmoq*, *kabūr katta*.

“l” tovushi - til oldi tanglay undoshi. Uning talaffuzida til uchi tanglay oldiga yopishib turadi va ikki yonda qolgan tor tirqishlar orqali havo oqimi o‘tib turadi. Masalan: *labūb aqlli*, *jalūl ulug‘*.

“sh” undoshi til oldi, shovqinli, sirg‘aluvchi, jarangsiz tovushdir. U o‘zbek tilidagi *sh* harfiga talaffuz jihatidan juda o‘xshash. Masalan, *shadūdun* (kuchli), *basharun* (inson).

s va *sh* tovushlari yozuvda س va ش ko‘rinishga ega bo‘lib, *s* nuqtasiz, *sh* uch nuqta ko‘rinishiga ega bo‘lgan bir xil shakldagi harfdir.

3.Undosh harflarning ikkilanishi

O‘zbek tilida bo‘lgani kabi arab tilida ham barcha undoshlar ikkilanib kelishi mumkin. Ikkilangan undoshlar so‘z o‘rtasida hamda pauzali o‘qishda so‘z oxirida ham kelishi mumkin. Ikkilangan undoshlar talaffuzda qattiqroq yoki o‘sha harf ustida bir oz turib qolish bilan hosil qilinadi. O‘zbek tilida ikkilangan undosh ketma-ket yozilsa, arab tilida esa ikkilangan harflar bitta harf bilan ifodalanib, ustiga “tashdid” ْ belgisi qo‘yiladi. Uning o‘zbek tilidagi ikkilangan undoshdan farqi ham shunda. Odatda arabcha matnlarda tashdid yozilmaydi. Bu belgini faqatgina Qur‘on, darslik yoki she‘riy asarlarda uchratish mumkin. Masalan, جَدًّا *jiddan* (juda), مَكْمَلٌ *mukammalun* (komil), لِكُلِّ *likullin* (har birining), سِرٌّ *sirrun* (sir) kabi. Yana shuni ham ta’kidlash zarurki, o‘zbek tilida ko‘pincha arab tilidan kirib kelgan so‘zlarda undoshlarning ikkilanganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *talaffuz, mukammal, takalluf, mudarris* kabi.

Savol va topshiriqlar

- 1.Fonema nima?
- 2.Nutq tovushlari va harflarning farqli tomonlarini tushuntiring.
- 3.Unli tovushlar qanday tasnif qilinadi?
- 4.Undosh fonemalarchi?
- 5.Jarangli va jarangsiz undoshlar qaysilar?
- 6.Undosh harflarning ikkilanishi deganda nimani tushunasiz?

3-MAVZU: ARAB TILI FONETIKASINI GURUHLARGA BO‘LIB O‘RGANISH. (DAVOMI) (2 SOAT)

Reja:

- 1.Undosh tovushlar tasnifi.(davomi)
- 2.Arab tili undosh tovushlarining o‘zbek tilida uchramaydigan turlari.
- 3.Tanvinlar.

q, *x*, *g*‘ tovushlari halqumda hosil bo‘ladigan shovqinli undoshlardir. Bulardan *q* tovushi portlovchi jarangsiz tovush bo‘lsa, *x* tovushi shovqinli jarangsiz, *g*‘ esa shovqinli jarangli tovushdir. Mazkur tovushlar talaffuzi uchun umumiy qoida shundan iboratki, bunda til orqaga tortilib, tilning orqa devori yumshoq tanglayning oxiriga tekkizish jarayonida portlash hosil qilinadi, bunda nutq organlari albatta taranglashgan bo‘ladi. Bunday tovushlar rus tilida uchramaydi. Chunki ular talaffuzida yumshoq tanglay ishtirok etadi.

Masalan, *qarārun* (qaror), *qāla* (demoq), *qūla* (aytilgan); *xabarun* (xabar), *xarūfun* (kuz); *g‘arbun* (g‘arb) , *ballag‘a* (xabar bermoq , etkazmoq), *g‘ālin* (aziz).

“**x**.” va “ ‘ayn ” tovushi bo‘g‘izning halqum qismida paydo bo‘luvchi jarangsiz shovqinli sirg‘aluvchi undosh. Uning talaffuzida bo‘g‘iz mushaklari taranglashib, bir-birlariga yaqinlashib keladi. Ular juda tig‘izlashib, o‘rtada tor yo‘lak hosil bo‘ladi. Tashqariga otilayotgan havo ana shu tor yo‘lak orqali o‘ta turib, muskullar ustidan “sirg‘anadi”. Natijada jarangsiz shovqin tarzida “x.” undoshi talaffuz bo‘ladi. Agar bunday holda yana ovoz ham ishtirok etsa, unda ‘ayn tovushi hosil bo‘ladi. Bu tovushlar bo‘g‘izning mushaklari nihoyatda taranglashib jipslashgach, pauzadan so‘ng birdaniga bo‘shashuvi oqibatida , nafas kuch bilan tashqariga otilgan lahzada talaffuz qilinadi. Masalan: *o‘ād.ix.un* oydin, *milx.un* tuz , *ilmun* ilm, *shi‘run* she‘r kabi. Bunday tovush o‘zbek tilida yo‘q.

“**h**“ tovushi jarangsiz shovqinli sirg‘aluvchi. U bo‘g‘izda, tovush paychalarining o‘zaro yaqinlashgan va engil taranglashgan holatida talaffuz etiladi. “h” tovushi talaffuzi paytida nutq a‘zolari erkin vaziyatda bo‘ladi. Bunday tovush o‘zbek tilida mavjud. Masalan: *hum* ular, *hazlun* hazil, *mihnatum* kasb.

2. Arab tili undosh tovushlarining o‘zbek tilida uchramaydigan turlari

Arab adabiy tilida yigirma sakkizta undosh tovush mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlari o‘zbek tilida mavjud emas. Ular quyidagilardir: ض (d.), ص (s.), ظ (z.) , ط (t.), ح (x.), ذ (z), ث (c), ع (‘ayn) , و (o‘ao‘), hamda “hamza” undoshi. Mazkur tovushlar quyidagi jadvalda ajratib ko‘rsatilgan:

Hosil bo'lish o'rni Hosil bo'lish usuli			Lab-lab	Lab-tish	tanglay				til o'rti	CHuqur	Bo'g'iz tovushlar		
					tishlar orasi	Tish orti.	Emfatik (tish orti)	Old tanolav			YUqori tovush navchala	Pastki tovush navchala	halqum
Portlovchi	shovqinli	jarangli				d.							
		jarangsiz				t.						'hamza	
	burun tovushlar												
Sirg'aluvchi	shovqinli	jarangli			z	z.					'ayn		
		jarangsiz			c	c.					x.		
	tovushlar		o'										
Tebranma tovushlar													
Qorishiq tovushlar													

Yuqoridagi arab harflarining komp'yuter imkoniyatiga moslashtirilgan transkripsiyasiga diqqat bilan nazar tashlasak, oddiy **s** bilan bir qatorda **s.** va **c** ni yoki **z** bilan **z.** hamda **z** ni, oddiy **t** bilan **t.** ni, oddiy **d** bilan **d.**, **x** bilan **h** va **x.**, qolaversa o'zbek tiliga xos bo'lmagan (**'hamza** va (**'ayn** tovushlarini uchratamiz.

Ular odatda talaffuzi qiyin bo'lgan tovushlar deb ham ataladi. Bunday tovushlarni talaffuz qilganda ularning oddiy ekvivalenti talaffuzidan farqlay bilish zarur.

t.; d.; s.; z. undoshlari hosil bo'lish o'rniga ko'ra til oldi tovushi, hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra jarangsiz tovushlardir . Bu tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun tilning uchini emas, ("t" tovushi kabi), balki tilning oldingi yarim qismini to'laligicha tanglayga tegizish kerak. SHu sharoitdagi havoning portlashidan mazkur tovush hosil bo'ladi. Bu

tovush zarb bilan aytiluvchi emfatik tovush hisoblanadi. Bulardan “t.”va s. tovushi jarangsiz, *d.* va *z.* jarnglidir.

Mazkur harflarni oddiy harflar kabi talaffuz qilish soʻz maʼnosi tubdan oʻzgarib ketishiga sabab boʻladi. Masalan: ضرب *d.arb* –zarba

درب *darb* - soʻqmoq

yoki

طيار *t.ayyār*- uchuvchi boʻlsa, تيار *tayyar* –oqim maʼnosida keladi.

Bu emfatik tovushlardan keyin kelgan *a* va *ā* tovushi past tembrda talaffuz etiladi. Masalan, bat.alun *qahramon*, oʻat.anun *Vatan*, t.ālibun *talaba*.

Mazkur emfatik tovushlardan keyin kelgan *i* va *ū* lar rus tilidagi «i» tovushiday talaffuz etiladi. Masalan: t.ībun *tibbiyot*, bas.ūrun *yaxshi koʻruvchi*, z.illun *soya*.

Bu emfatik tovushlardan keyin kelgan *u*, *ū* tovushlarida oʻzgarish sezilmaydi. Masalan, t.ullābun *talaba*, z.ulmun *zulm*,s.uoʻarun *suratlar*.

S. tovushini oddiy *s*, yoki **z.** tovushini oddiy *z* kabi talaffuz etish ham maʼno butunlay oʻzgarishiga olib keladi.Masalan:

ظفر *z.afar* gʻalaba

زفر *afar* yogʻ

صيف *s.ayf* yoz fasli

سيف *sayf* qilich

s va z undoshlari tishlar orasida hosil boʻluvchi, sirgʻaluvchi va shovqinli tovushdir. S undoshi – jarangsiz, z undoshi esa jaranglidir. Uning talaffuzida til uchi tishlar orasiga joylashtirilib, yuqoridagi tishlarga jipslashadi. SHunda til uchi bilan pastki tishlar orasiga hosil boʻlgan kichik tirqishdan bu tovushlar sirgʻalib chiqadi. U ingliz tilidagi *th* harfi talaffuziga oʻxshaydi, masalan (to) *thank minnatdorchilik bildirmoq*, *there u erda*. Shuni unutmaslik zarurki ularni oddiy *s* va *z* kabi talaffuz qilishdan tiyilmoq lozim. Masalan:

نثر *nasr* proza

نصر *nas.r* gʻalaba

نسر *nasr* burgut

